

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
QARSHI-MUHANDISLIK IQTISODIYOT INSTITUTI
GEOLOGIYA VA KONCHILIK ISHI FAKULTETI

Ro'yxatga olindi:

№ 183

2022 y. "29" 08



KONCHILIK SOHASIGA KIRISH

ISHCHI O'QUV DASTURI
(SILLABUSI)

Bilim sohasi	700000	-	Muhandislik ishlov berish va qurilish sohalari
Ta'lim sohasi:	710000	-	Muhandislik ishi
	720000	-	Ishlab chiqarish va ishlov berish sohalari
Ta'lim yo'nalishi	60721500	-	Konchilik ishi (ochiq konchilik ishlari) (yer osti konchilik ishlari)

Qarshi 2022 – yil

Fan (modul) kodi KSK2305 (bakalavr)		O'quv yili 2022-2023	Semestr 3	ECTS-Kreditlar 4	
Fan (modul) turi Tamlov fani		Ta'lim tili O'zbek	Hafidagi dars soatlari 4		
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yukdama (soat)	
	Konchilik sohasiga kiritish	60	60	120	
2.					
I. Fanning mazmuni. 1.1 Fanni o'qitish maqsadi va vazifalari: Fanni o'rganish konchilik sanoati to'g'risida umumiy ma'lumotlarga ega bo'lish, fan tarixi va rivojlanishining tendensiyasi, istiqbolini o'z ichiga oladi, talabalarni konchilik sanoati rivojlanish tarixi, minerallar to'g'risida ma'lumotlar, ta'lim standartida talab qilingan bilimlar, ko'nikmalar va tajribalar darajasini ta'minlashga xizmat qiladi. Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar, elektron materiallar, virtual standlar hamda ishchi holatdagi mashinalarning ishlab chiqarishdagi namunalar va maketlaridan foydalaniladi. Ma'ruza va amaliy darslarda mos ravishdagi ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalaniladi. Fan bo'yicha ma'ruza matnlarini tayyorlashda chet mamlakatlar, jumladan Hamdustlik mamlakatlarida yangi chop etilib, "Internet" tizimi orqali tarqatilgan elektron darsliklar, o'quv qo'llanmalar va ma'ruza matnlaridan foydalaniladi. Shuningdek, ma'ruzalarni o'tishda elektron ma'ruzalardan, mavzularga mos multimedial slyaydlar va videofilmlardan foydalanish ko'zda tutiladi. Talabalar oldiga fan konchilik sanoati rivojlanish tarixi, bosqichlari, Respublikamizdagi ulkan konchilik korxonalari ularning tasarrufidagi konlarni o'rganish vazifasini qo'yadi. Fanni o'qitishdan maqsad – "Konchilik sohasiga kirish" fani bo'yicha yo'nalish profiliga mos, ta'lim standartida talab qilingan zamonaviy bilimlar, ko'nikmalar va tajribalar darajasini ta'minlashdir. Fanning vazifalari – uni o'rganuvchilarga: - konchilik sanoatining paydo bo'lish va rivojlanish tarixi. - konchilik korxonalarining umumiy tavsifi, konchilik korxonalarining yo'nalishlari, konchilik ishlab chiqarishi to'g'risida umumiy ma'lumotlar; - respublika kon qazish rayonlarining qisqacha tavsifi, mineral resurslar, tog' jinslari va foydali qazilmalar, respublikamizdagi ulkan konchilik korxonalari, foydali qazilma konlarini qazib olish usullari, foydali qazilmalarni boyitish usullari masalalarini talabalar o'zlashtirishidir. II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari) Fan tarkibi mavzulari:					
№		Mavzular III-SEMESTR			soat
1-ma'ruza		Konchilik ishining dastlabki paydo bo'lish tarixi			2 soat

2- ma'ruza	Foydali qazilmalar to'g'risida umumiy ma'lumot.	2 soat
3- ma'ruza	O'zbekiston respublikasining mineral xom-ashyo bazasi.	2 soat
4- ma'ruza	Respublikamizning rivojlanishida konchilik sanoatining o'rni va ahamiyati.	2 soat
5- ma'ruza	Konchilik korxonalari va ularning tarkibiy qismlari.	2 soat
6- ma'ruza	"O'zbekko'mir" AJ va uning tasarrufidagi korxonalar haqida umumiy tushunchalar.	2 soat
7- ma'ruza	Angren ko'mir koni va uning zaxiralari.	2 soat
8- ma'ruza	Navoiy kon-metallurgiya kombinati va uning yo'nalishlari.	2 soat
9- ma'ruza	Muruntov oltin koni va uning faoliyati.	2 soat
10- ma'ruza	Olmaliq tog'-metallurgiya kombinati va uning yo'nalishlari.	2 soat
11- ma'ruza	Qalmoqg'ir konining asosiy parametrlari.	2 soat
12- ma'ruza	Dehqonobod kaliyli o'g'itlar zavodi AJ va tog' kon majmuasi haqida ma'lumot.	2 soat
13- ma'ruza	Foydali qazilma konlarini ochiq usulida qazib olish to'g'risida tushuncha.	2 soat
14- ma'ruza	Foydali qazilma konlarini yer osti usulida qazib olish to'g'risida tushuncha.	2 soat
15- ma'ruza	Respublikamizdagi noruda konlar va ularning zaxiralari.	2 soat
Jami:		30

2.3. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Talabalar ma'ruza mashg'ulotlarida olgan bilim va ko'nikmalarni misol va masalalar yechish bilan mustahkamlaydilar hamda yanada boyitadilar. Bunga jamoa bo'lib mashq qilish yo'li bilan va mustaqil ishlash yo'li bilan erishiladi. Mustaqil ishlashda darsliklarni, o'quv qo'llanmalarni, uslubiy qo'llanmalarni, tarqatma va ko'rgazmali ashyolarni ahamiyati kattadir.

Amaliy mashg'ulotlarning mavzulari:

№	Mavzular III-SEMESTR	soat
1-amaliy mashg'ulot	Dastlabki kon lahimlari va ularning tuzilishini aniqlash.	2 soat
2-amaliy mashg'ulot	Foydali qazilma va ularning turlarini o'rganish	2 soat
3-amaliy mashg'ulot	Foydali qazilmalarni ochish va tayyorlash sxemalarini tanlash.	2 soat
4-amaliy mashg'ulot	Noruda konlarini qazib olish texnologiyasini o'rganish.	2 soat
5-amaliy mashg'ulot	Foydali qazilmalarni ochiq usulda qazib olish jarayonini o'rganish.	2 soat
6-amaliy mashg'ulot	Konlarda ishlatiladigan mashina mexanizmlar tuzilishini o'rganish.	2 soat
7-amaliy mashg'ulot	Shaxta maydonini ochish sxemalarini tanlash.	2 soat
8-amaliy mashg'ulot	Angren ko'mir konlarida qo'llaniladigan yetkazib berish qurilmalari ish unumdorligini hisoblash.	2 soat
9-amaliy mashg'ulot	Loyihaviy quvvatni bajarish uchun kerakli uskunalarni aniqlash.	2 soat
10-amaliy mashg'ulot	Yer osti kon ishlarida o'ziyurar burg'ulash uskunalarning ish unumdorligini hisoblash.	2 soat
11-amaliy mashg'ulot	Rudnikda o'ziyurar tashishuvchi mashinalarning ish unumdorligini hisoblash.	2 soat

12-amaliy mashg'ulot	O'ziyurar yuklovchi yetkazib beruvchi mashinalarning ishi unumdorligini hisoblash.	2 soat
13-amaliy mashg'ulot	Siqilgan havoda ishlaydigan yuklagichlarning ishi unumdorligini hisoblash.	2 soat
14-amaliy mashg'ulot	Rudnikda metallning ekspluatatsion zahirasini aniqlash.	2 soat
15-amaliy mashg'ulot	Yer osti kon lahimlarida ishlatiladigan siqilgan havoda ishlaydigan perforator va ularning ishi unumdorligini aniqlash.	2 soat
Jami:		30

2.4. Laboratoriya ishlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

O'quv rejalarda laboratoriya ishlari kiritilmagan.

2.5. Kurs ishi (loyihasi) bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Fan bo'yicha kurs ishi namunaviy o'quv rejasida rejalashtirilgan.

2.6. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Tavsiya etilayotgan mustaqil ish mavzulari

No	Mavzular	soat
1	Konchilik ishining dastlabki paydo bo'lish tarixi.	2
2	Yer osti konlari ishlatiladigan dastlabki ko'rinishlari	2
3	O'zbekiston konchilik sanoatining tarixi;	2
4	Mustaqillik yillarida konchilik va metallurgiya sanoatining rivojlanishi;	2
5	Dunyodagi eng yirik kon korxonalari to'g'risida ma'lumotlar;	2
6	Konchilik sanoati rivojlangan davlatlar to'g'risida ma'lumotlar;	2
7	Xorijdagi konchilik yo'nalishidagi oliy ta'lim dargohlari to'g'risida ma'lumot;	2
8	Konchi olimlar va ularning konchilik sohasiga qo'shgan hissalari;	2
9	Konchilik sanoatidagi yengiliklar va qo'llanilayotgan zamonaviy texnologiyalar;	2
10	Konchilikda qo'llaniladigan zamonaviy kon-mashina uskunalari ishlab chiqaruvchi korxonalar;	2
11	Foydali qazilma konlarini qazib olishning noan'anaviy usullari qo'llaniladigan kon korxonalari;	2
12	Foydali qazilmalarni boyitishda qo'llaniladigan zamonaviy mashina va uskunalar.	2
13	Ochiq usulda konlarni qazib olish	2
14	Muruntov oltin koni haqida	2
15	Ko'mir qatlamlarini qazib olish	2
16	Qalmoqir mis koni	2
17	Respublikamizdagi gigant kon korxonalarining zamonaviy holati	2
18	Karyerlarni portlatish ishlarining hozirgi holati	2
19	Dehqonobod kaliy zavodi boyitish fabrikasi	2
20	Kaliyli rudalarni qazib olish texnologiyasi	2
21	Lahim o'tuvchi kombaynlar bilan qazib olish	2
22	O'zbekistondagi qurilish materiallari konlari	2
23	Kon lahimlari va ularning turlari	2
24	Foydali qazilmalarni boyitish asoslari	2
25	Granit, mramor qazib olish istiqbollari	2

26	Dunyodagi yirik kon korxonalari	2
27	Oltin zaxiralari bo'yicha yetakchi konlar	2
28	Konlarni noan'anaviy usulda qazib olish	2
29	Yer osti qazish transportlari turlari	2
30	Ochiq usulda qazishda qo'llaniladigan texnikalar	2
Jami:		60

3.	III. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetentsiyalar) Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: • "Konchilik sohasiga kirish" fanini yuqori darajada rivojlantirish omillari haqida tasavvur va bilimga ega bo'lishi; • ta'lim yo'nalishlari bo'yicha qo'llaniladigan asosiy masalalarni yechish, har xil xususiyatlarini bilish va ulardan foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lishi; • talaba olib boriladigan ismi mazmun-mohiyatini bilish, ulardan foydalanish, ega bo'lishi kerak.	
4.	Ta'lim texnologiyalari va metodlari: • Ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • semenarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.	
5.	Kreditlarni olish uchun talabalar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha test topshirish.	
6.	Talabalar bilimini nazorat qilish uchun baholash mezonlari "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi Nizom O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-son buyrug'i bilan tasdiqlangan va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2018-yil 26-sentabrdagi 3069-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan. Ushbu Nizom asosida talabalar bilimni nazorat qilish va baholash tizimi orqali baholashdan maqsad O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018- yil 5- iyundagi PQ – 3735-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga muvofiq ta'lim sifatini boshqarish orqali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga erishish, talabalarining "Konchilik sohasiga kirish" fanini o'zlashtirishda bo'shliqlar hosil bo'lishini oldini olish, ularni aniqlash va bartaraf etishdan iborat. "Konchilik sohasiga kirish" fanidan tuzilgan talabalar bilimni nazorat qilish va baholash jadvalining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: a) talabalarda Davlat ta'lim standartlariga muvofiq tegishli bilim, ko'nikma va malakalar shakllanganligi darajasini nazorat qilish,	

- b) faning asosiy tushunchalarini talabalar tomonidan tuzimli tarzda va belgilangan muddatlarda o'zlashtirilishini tashkil etish va tahlil qilish;
- c) talabalarda mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish;
- d) talabalar bilimini xolis va adolatli baholash hamda uning natijalarini vaqtida ma'lum qilish.

“Konchilik sohasiga kirishi” fanidan nazorat turlari va uni amalga oshirish tartibi
Talabalar bilim saviyasi va o'zlashtirish darajasining Davlat ta'lim standartlariga muvofiqligini ta'minlash uchun quyidagi nazorat turlarini o'tkazish nazarda tutiladi:

JORIY NAZORAT – talabaning fan mavzulari bo'yicha bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Joriy nazorat “Konchilik sohasiga kirish” fanining xususiyatidan kelib chiqqan holda, amaliy mashg'ulotlarda og'zaki so'rov, test o'tkazish, nazorat ishi, mustaqil ish vazifalarini tekshirish shakllarda o'tkaziladi;

ORALIQ NAZORAT – semestr davomida “Konchilik sohasiga kirish” fani ishchi o'quv dasturining tegishli (bir necha mavzularini o'z ichiga olgan) bo'limi tugallangandan keyin talabaning bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli hisoblanadi. “Konchilik sohasiga kirishi” fanidan oraliq nazorat bir marta yozma shaklda o'tkaziladi;

YAKUNIY NAZORAT – semestr yakunida “Konchilik sohasiga kirishi” fani bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni talabalar tomonidan o'zlashtirish darajasini baholash usuli hisoblanadi. Yakuniy nazorat Konchilik ishi asoslari fanidan uyanch tushuncha va iboralariga asoslangan “og'zaki” yoki “yozma” shaklida o'tkaziladi.

Professor-o'qituvchilar tomonidan “Konchilik sohasiga kirishi” fanidan oraliq nazoratni o'tkazish jarayoni kafedra yig'ilishlarida davriy ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda, oraliq nazorat natijalari bekor qilinadi hamda oraliq nazorat qayta o'tkaziladi.

“Konchilik sohasiga kirishi” fanidan yakuniy nazorat dekanat tomonidan tuzilgan komissiya ishtirokida o'tkaziladi. Yakuniy nazoratni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda, yakuniy nazorat natijalari bekor qilinadi hamda yakuniy nazorat qayta o'tkaziladi.

Fan bo'yicha baholash jadvali

Kurs	Semestr	Fanga ajratilgan soat	Ma'ruza	Amaliy mashg'ulotlar	Tajriba mashg'ulotlar	Mustaqil ish soati	Ab-auditorya baholari	Nazorat turlari							O'zlashtirish ko'rsatkichi
								Jami soat % hisobida	50	5	JN	ON	ΣJN+ON	Saralash bahosi	
2	3	120	30	30	60		Ab	50	5	5	5	3	5	Y.O	5
							Mb	50							

3-SEMESTR					
“Konchilik sohasiga kirishi” fanidan reyting ishtirokchisi					
T/R	Nazorat turlari	1. JN umumiy 5 baho	Soni	baho	Jami baho
1.1.	Amaliy mashg'ulotlarni bajarish	15		3-5*	5
2.1.	Oraliq nazorat, yozma ish (3 ta savol)	1		3-5**	5
2.2.	Mustaqil ish har bir semestr uchun	1 tadan		3-5**	5
	ΣJN+ON				5
3.1.	Yakuniy nazorat, og'zaki (3 ta savol)	1		5	5
	Jami				5

“Konchilik sohasiga kirishi” fanidan baholash tartibi va mezonlari

“Konchilik sohasiga kirishi” fani bo'yicha talabaning semestr davomidagi o'zlashtirish ko'rsatkichi 5 tuzimda butun sonlar bilan baholanadi.

Ushbu 5 baho nazorat turlari bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi:

Yakuniy nazoratga – 5 baho. Yakuniy nazoratda **3 ta** topshiriq bo'lib, shundan **2 ta** nazariy va **1 ta** amaliy topshiriqlar beriladi, jumladan:

-auditoriyada o'tilgan mavzular bo'yicha **1 ta** nazariy va **1 ta** amaliy; -mustaqil ishlar mavzulari bo'yicha **1 ta** nazariy topshiriqlar beriladi.

Baholash mezonlari

* Baholash quyidagi ma'munaviy mezonlarga asoslanadi:

5 – (a'lo) baho:

Xulosa va qaror qabul qilish.

Ijodiy fikrlay olish.

Mustaqil mushohada yuritish.

Olgan bilimlarni amalda qo'llay olish.

Mohiyatini tushunish.

Bilish, aytib berish.

Tasavvurga ega bo'lish.

4 - (yaxshi) baho:

Mustaqil mushohada yuritish.

Olgan bilimlarni amalda qo'llay olish.

Mohiyatini tushunish.

Bilish, aytib berish.

Tasavvurga ega bo'lish.

3 - (qoniqarli) baho:

Mohiyatini tushunish.

Bilish, aytib berish.

Tasavvurga ega bo'lish.

2 - (qoniqsiz) baho:

Dasturni o'zlashtirmaganlik. Fanning mohiyatini bilmaslik. Anniq tasavvurga ega bo'lmashlik. Mustaqil fikrlay olmaslik. 1.1. Har bir juftlik darsiga ajratilgan baho maksimal 5 bilan baholanadi. Joriy nazoratning mustaqil ishi uchun ajratilgan baho talabning mustaqil ish savollarga yozma tayyorlab kelgan referati (yozma ishi, misollar yechimlari to'plami) asosida baholanadi. **2.1. Oraliq baholash yozma tartibda o'tkazilib, unda 3 ta savolga javob berilish so'raladi. Jumladan shulardan 2 tasi nazariy va 1 tasi amaliy savollar. Har bir savolga to'liq javob uchun 5 baho qo'yiladi. Bunda savol uchun: • Agar savollar mohiyati to'la o'chilgan bo'lsa 5 baho • Savollarga umumiy javob berilgan, ammo ayrim faktlar to'liq yoritilmagan bo'lsa - 4 baho • Savollarga javob yozishga harakat qilingan, chalkashishlar bo'lsa - 3 baho • Savollarga umuman javob yozilmagan yoki savollarda chalkashishlar bo'lsa - 2 baho Oraliq nazoatning mustaqil ishi uchun ajratilgan baho talabning mustaqil ish savollarga yozma tayyorlab kelgan referati (yozma ishi) himoyasi asosida qo'yiladi. Yakuniy baholashda talaba 5 ta savolga yozma javob berishi lozim. Har bir savolga 5 baho ajratiladi. • Agar savollarning mohiyati to'la o'chilgan, asosiy faktlar to'g'ri bayon qilingan bo'lsa savolga 5 baho qo'yiladi • Savollarga to'g'ri javob berilgan, lekin ayrim kamchiliklari bor bo'lsa savolga 4 baho qo'yiladi • Berilgan savollarda javoblar umumiy va kamchiliklar ko'proq bo'lsa 3 baho qo'yiladi • Savollarga to'g'ri javoblar bo'lmaganda, kamchiliklar ko'p bo'lganda va to'liq bo'lmasa 2 baho qo'yiladi. "Konchilik sohasiga kirishi" fanidan nazorat turlarini o'tkazish muddati Joriy nazorat o'qituvchi tomonidan har bir (ikki) juftlik darsda baholanib boriladi. Oraliq nazorat kalendar tematik rejaga muvofiq dekanat tomonidan tuzilgan reyting nazorat grafiklari asosida o'tkaziladi. Yakuniy nazorat semestrlarning oxirgi 2 haftasi mobaynida dekanat tomonidan tuzilgan YaN grafiki asosida o'tkaziladi. Joriy va oraliq nazoratlarda saralash bahoidan kam baho to'pagan va uzrti sabablarga ko'ra nazoratlarda qatnasha olmagan talabaga qayta topshirish uchun, navbatdagi shu nazorat turiga, so'nggi joriy va oraliq nazoratlar uchun yakuniy nazoratgacha bo'lgan muddatda topshirish uchun ruxsat beriladi va belgilangan tartibda qabul qilinadi. Kasalligi sababli darslarga qatnashmagan hamda belgilangan muddatlarda joriy, oraliq va yakuniy nazoratlarni topshira olmagan talabalarga fakultet dekani farmoyishi asosida, o'qishni boshlaganidan so'ng ikki hafta muddatda topshirishga ruxsat beriladigan grafik asosida joriy, oraliq va yakuniy nazoratlari qabul qilinadi. Talabning semestrda joriy va oraliq nazorat turlari bo'yicha to'plangan baholaridan biri qoniqsiz deb topilsa u yakuniy nazorat ishiga kiritilmaydi. Akademik qarzdor talabalarga semestr tugaganidan keyin dekanat tomonidan qayta	o'zlashtirish uchun bir oy muddat beriladi. Shu muddat davomida "Konchilik sohasiga kirishi" fanini o'zlashtira olmagan talaba to'g'risida fakultet dekaniga ma'lumot beriladi. Talaba "Konchilik sohasiga kirishi" fani bo'yicha nazorat natijalaridan noroz bo'lsa, u nazorat turi natijalari e'lon qilingan vaqtidan boshlab bir kun mobaynida fakultet dekaniga ariza bilan murojaat etishi mumkin. Bunday holda fakultet dekanining taqdimnomasiga ko'ra rektor buyrug'i bilan 3 (uch) a'zodan kam bo'lmagan tarkibda apellyatsiya komissiyasi tashkil etiladi. Apellyatsiya komissiyasi talabalarining arizalarini ko'rib chiqib, shu kunning o'zida xulosasini bildiradi. Baholashning o'rnatilgan talablar asosida belgilangan muddatlarda o'tkazilishi hamda rasmiylashtirilishi kafedra mudiri tomonidan nazorat qilinadi. ADABIYOTLAR. Asosiy adabiyotlar. 1. Howard L.Hartman. Introductory mining engineering. - USA: Alabama, 2002. 2. Sagatov N.X. Kon ishlari asoslari, O'quv qo'llanma. - T.: TD TU, 2005. 3. Norov Yu.D., Zairov Sh.Sh. Vvedenie v napravlenie. - N.: Navoi, 2015. 4. Umarova I.K., Solijanova G.K. Foydali qazilmalarni boyitish va qayta ishlash. Darslik. - T.: Cho'pon. 2009 Qo'shimcha adabiyotlar. 1. W. Scott Dunbar/ Americas school of mines: Basics of mining and mineral processing. University of British Columbia. USA, 2012. 2. Sagatov N.X., Aripova L.T., Petrosov Yu.E., Djabbarov M.N. Ochiq kon ishlari texnologiyasi va kompleks mexanizatsiyalash. O'quv qo'llanma. - T.: Kamalak press. 2015. Elektron resurslar 1. http://www.gov.uz/ - O'zbekiston Respublikasi hukumat portali. 2. http://www.lex.uz/ - O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlar milliy bazasi. 3. http://www.rusmet.ru/minjournal/ 4. http://www.ziyouet.uz/ 5. http://www.catback.ru/ - Научные статьи и учебные материалы. 6. http://www.ngmk.uz/ 7. http://www.agmk.uz/ 8. http://www.elibrary.ru/ - ilmiy elektron kutubxona. 9. http://172.16.2.210 - Toshkent davlat texnika universiteti axborot resurslar markazi. 8. Fan uchun mas'ul kafedra: Konchilik ishi Instruktor: Karimov Y.L. - QarMI, "Konchilik ishi" kafedrasida dotsent v.b. Qayumov O. A. - QarMI, "Konchilik ishi" kafedrasida assistenti. Kafedra joylashgan joyi: QarMI, Geologiya va Konchilik ishi fakulteti binosi Telefon: +998973163664 9. Fanning ishehi o'quv dasturi (sillabus) "Konchilik ishi" kafedrasining 2022 yil <u>28</u> dagi <u>1</u> - son yig'ilishida muhokamadan o'tgan va fakultet yig'ilishida muhokama qilish uchun tavsiya etilgan. Kafedra mudiri:  Shodiyev A.N.
---	--

Fanning ishchi o'quv dasturi (sillabusi) Geologiya va konchilik ishi fakulteti kengashida muhokama etilgan va foydalanishga tavsiya qilingan (2022 yil 08 08 1-son bayonnoma).

Geologiya va konchilik ishi fakulteti dekani Yarboboyev T.N.

Fanning ishchi o'quv dasturi (sillabusi) Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti Kengashining 2022 yil 08 08 1-sonli bayoni bilan tasdiqlangan "Konchilik sohasiga kirish" fani dasturi asosida tayyorlangan.

Kelishildi:

O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i:

Yaridiev Sh.